

O'ZBEK VA KOREYS TILLARIDA OT SO'Z TURKUMINING MAXSUS XUSUSIYATLARI VA YASALISH USULLARI

M. Madaminova¹

Annotatsiya:

Ushbu maqolada koreys va o'zbek tillarida ot so'z turkumining ifodalanishi, maxsus xususiyatlarga egaligi va boshqa tomonlari haqida fikr yuritiladi. Har bir tilning tuzilish strukturasi va o'rganish metodikasi bo'lib, ularning asosini leksika va grammatika tashkil etadi. Xususan, ot so'z turkumining qanday yasalishi va ularni tadbiq qilish haqidadir.

Kalit so'zlar: o'zbek tili, koreys tili, komponent, tub otlar, yasama otlar, o'zak, affikslar, qo'shma otlar.

doi: <https://doi.org/10.2024/2yf41g73>

Kirish

O'zbek tilida, avvalo, ot so'z turkumi haqida gapirib o'tsak, ot narsa-buyum, shaxslarning nomini ifodalaydi. Otlar kim? nima? qayer? so'roqlaridan biriga javob bo'ladi. Otlar egalik, kelishik kabi so'z o'zgartirish, turli ma'no va vazifa uchun qo'llanuvchi vazifadosh shakllarga hamda o'ziga xos so'z yasash tizimiga egaligi bilan ajralib turadi. Otlarning muhim belgilaridan biri, ularning sifat (혀용사), son (수사), olmosh (대명사), fe'l (동사) va ravish (부사) distributsiyasida kelishi, ya'ni ular bilan birika olishidir: 큰 건물, 둘째 학년, 모든 사람 barcha inson, 책을 읽다 kitob o'qimoq, 많은 사람 ko'p odam.

Ot gapning barcha gap bo'lagi vazifasida qo'llanishi mumkin. Otning bu kabi sintaktik vazifasi uning qanday grammatik shakldaligi bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, otning bosh shakli, ya'ni bosh kelishik, ko'plik yoki birlik hamda egalik shakli gapda ega (주어), kesim (소술어) kabi vazifada keladi: 우즈베키스탄은 독립국가입nida. 제 국적은 우즈베키스탄입니다. 제 우즈베키스탄은 제 kohyang 입니다.

Otlarning xususiyatlari. 명사의 특징

Koreys tili agglyutinativ tillar guruhiga kiradi, shuning uchun bu tilda so'z yasalishi hamda so'zning o'zgarish hollarida so'zning o'zagi o'zgarmaydi, so'z o'zgarishi affikslar yordamida bo'ladi- bu koreys tilining xususiyati. Rod kategoriyasi grammatik jihatdan namoyon bo'lmaydi, ko'plik esa otning o'zagiga "들" affiksi qo'shilishi bilan ifodalanadi. Otning o'zagiga kesim yasovchi " - 이다" qo'shimchasi qo'shilgan holda, u ot-kesim vazifasini bajaradi. 마리코는 선생님입니다- Mariko o'qituvchi.

¹ Madaminova Munisaxon Qobiljon qizi, Samarqand davlat chet tillar instituti Sharq tillari fakulteti talabasi

Otlar mustaqillikka ega yoki ega emasligini inobatga olib, ular mustaqil (자립명사) va tobe ot (의전명사)larga bo'linadilar. 공원에는 나무가 많습니다. Bog'da daraxtlar ko'p - (자립명사) 이 책은 어제 산 곳입니다. Bu kitob kecha sotib olingan - (의전명사).

Mustaqil (자립명사) otlar o'z navbatida atoqli (보통명사) va turdosh ot (고유명사) larga bo'linadi. Bir turdagi narsa yoki hodisalarning birini ajratib ko'rsatish uchun xizmat qiladigan otlar atoqli otlar deyiladi. Atoqli otlar shaxs ismlari, hayvonlarning atoqli nomlari, tashkilot va geografik makon nomlari, koinot jismlari nomlari, suv havzalari, tashkilot nomlari kabi guruhlar doirasida uchraydi: 우즈베키스탄 (O'zbekiston), 한국 (Koreya), 한강 (Hangan daryosi), 서울 (Seul), 세전왕 (Qirol Sejon), 아미르 테무르 (Amir Temur). Turdosh otlar bir jinsdagi otlarning umumiy nomini bildiruvchi otlardir: 사람 (odam), 책 (kitob), 의자 (stul), 나무 (daraxt), 강 (daryo), 창문 (deraza), 비행기 (samolyot), 꽃 (gul).

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Otlarning yasalishi. 명사의 형식. Otlar tub va yasama bo'ladilar. Yasama otlar otning o'zagiga affikslarning qo'shilishi, o'zaklarning qo'shilishi va boshqa so'z turkumlarining qo'shilishi bilan yasaladi.

1) Tub so'zlar. 단일명사. Tub so'zlar hech qanday yasamasiz, otning yasovchi affikslarga ega bo'lmagan mustaqil lug'aviy ma'noli qismi tub ot demakdir: daraxt (나무), kiyim (옷), uy (집), odam (사람), daryo (강)

- 여름에는 강으로 놀러갑니다 - yozda daryoga o'ynashga boramiz.
- 저는 그 사람을 모릅니다 - men u odamni bilmayman.

2) Qo'shimcha (affiks) qo'shilishi bilan yasalgan otlar. 파생명사

Affiks tilshunoslikda so'zning qismi bo'lib, lotinchada "biriktirilgan" degan ma'noni anglatadi O'zakka zid qo'yiladigan, so'z yasalishi yoki grammatik ifoda shakllanishiga xizmat qiladigan morfema sanaladi. Shunga ko'ra, ikki turga ajraladi: So'z yasovchi hamda shakl yasovchi qo'shimchalar. O'zakka nisbatan joylashishiga ko'ra so'z boshida (affiks), so'z o'rtasida (infiks), so'z oxirida (suffiks) keladi. Koreys tilida asosan o'zakdan keyin (미용실, 요리사), o'zak oldida ham (무관심, 무의미), ba'zan so'z o'rtasida ham (빛소리, 나뭇잎) keladi.

a) so'z yasovchi qo'shimchalar (suffikslar). O'zak oxiriga so'z yasovchi qo'shimcha qo'shish orqali o'zakni boshqa yangi ma'noga aylantiradigan qo'shimchalarni ko'rib chiqamiz:

-사 (명사+사) asosdan anglashilgan narsa bilan bog'liq kasb, mutaxassislik bilan shug'ullanuvchi shaxs otlari: 요리사 (oshpaz), 변호사 (advokat), 군사 (harbiy), 간호사 (hamshira), 법무사 (huquqshunos), 기사 (haydovchi), 학사 (bakalavr), 석사 (magistr), 세무사 (hisobchi), 비행사 (uchuvchi)

-가 (명사+가) asosdan anglashilgan narsa bilan bog'liq kasb, mutaxassislik bilan shug'ullanuvchi shaxs otlari: 사업가 (biznesmen), 작가 (yozuvchi), 예술가

(san'atshunos), 서술가 (romanshunos), 음악가 (musiqachi), 전문가 (mutaxassis). Ushbu qo'shimchalar koreys tilida ko'rinishi har xil bo'lsada, o'zbek tilida - shunos, -chi, -kash kabi ma'nolarda tarjima qilinadi, bular umumiy jihatdan olib qaraganda kasb- hunarga oid yasovchi qo'shimchalardir.

- **꾼** (명사+꾼) asosdan anglashilgan narsa bilan bog'liq shaxs otlari: 사냥꾼 (ovchi), 씨름꾼 (kurashchi), 술꾼 (ichuvchi), 휘방꾼 (uydurmach), 거간꾼 (vositachi), 익살꾼 (askiyachi), 파수꾼 (qo'riqchi), 상여꾼 (tobutkash), 장사꾼 (savdogar).

- **게** (명사+게) asosdan anglashilgan narsa bilan bog'liq narsa otlari: 지우게 (o'chirg'ich), 집게 (qisqich), 이수시게 (tish kovlagich), 날게 (qanot), 베게 (yostiq).

- **점** (명사+점) asosdan anglashilgan narsa bilan bog'liq narsa otlari: 푸드점 (fastfood), 편의점 (qulay do'kon), 백화점 (do'kon), 가구점 (mebel do'koni).

b) old qo'shimchalar (affikslar). O'zakdan oldin qo'shilish orqali yangi ma'noni yuklash vazifasini bajaruvchi qo'shimchalarni tahlil qilib ko'ramiz:

- **한** (한 + 명사) 한글 = koreys alifbosi, 한복 = koreys milliy kiyimi, 한식 = koreya taomlari.

- **양** (양 + 명사) 양배추 = yevropa karami, 양식 = yevropa taomlari, 양복 = kostyum-shim.

- **덧 + 버선** = 덧버선 so'z o'zagining old qo'shimchasi "ustki" + "paypoq" = birinchi paypoq ustidan kiyiladigan ikkinchi paypoq (boshmoq): 할머니는 덧버선을 신고 다니십니다 - buvim ustki paypoqni kiyib yuribdilar.

- **맨 + 손** = 맨손 so'z o'zagining old qo'shimchasi "yalang'och" + "qo'l" = yalang'och qo'llar: 맨손으로 호랑이를 잡았습니다 - qo'l bilan sher tutib oldim.

- **애 + 호박** = 애호박 so'z o'zagining old qo'shimchasi "yosh" + "qovoq".

- **날 + 고기** = 날고기 so'z o'zagining old qo'shimchasi "xom" + "go'sht" = yangi go'sht: 날고기는 익혀서 드세요 - xom go'shtni yaxshi pishirib bering.

- **일 + 군** = 일군 ish + shaxs yasovchi qo'shimcha = ishchi (xizmatchi): 일손이 모자라서 일군을 구해야겠습니다 - ishchi qo'llar yetishmagani uchun ishchilarni topish kerak.

c) so'z o'rtasiga qo'shiladigan qo'shimchalar (infikslar). Ikki so'z o'rtasiga qo'shimcha qo'shilish orqali yangi ma'noni yuklash vazifasini bajaruvchi qo'shimchalarni tahlil qilib chiqamiz:

- 명사 + "ㅅ" + 명사 = 비 + ㅅ + 소리 = 빗소리, 나무 + ㅅ + 잎 = 나뭇잎

3) O'zak qo'shilishi bilan yasalgan otlar. **합성명사**

Asosan, otlarga o'zak qo'shilishi natijasida yangi ma'no hosil qilinganligi sababli yasalgan otlarni qo'shma otlar deb ham nomlashimiz mumkin:

- **잠 + 옷** = 잠옷 - uyqu + kiyim = pijama; 어머니는 아이에게 잠옷을 입혔습니다 - ona bolaga pijamani kiydirdi.

- **눈 + 물** = 눈물 - ko'z + suv = ko'z yoshi; 눈물이 소리없이 흘러내립니다 - ko'z yoshlari tovushsiz oqyapti.

- 책+ 상= 책상 - kitob+stol= kitob stoli; 책상 위에 화분이 놓여져 있습니다 - kitob stoli ustida gul tuvagi turibdi.
- 봄+ 비= 봄비 - bahor+ yomg'ir= bahor yomg'iri; 봄비가 어제부터 내리기 시작했습니다 - kechadan beri bahor yomg'iri yog'yapti.
- 밤+ 낮= 밤낮 - tun+ kunduz= kecha va kunduz.
- 코+ 등= 코등 - burun+ orqa= burun osti; 코등에 땀방울이 맺혀 있습니다 - burun ustida ter tomchilari paydo bo'ldi.
- 눈+ 사람= 눈사람 - qor+ odam= qorodam(qorbobo).

Muhokama va natijalar

So'z yasalishiga oid asosiy tushunchalarni to'la va to'g'ri belgilash, ulardan har birining mohiyatini to'g'ri aniqlash so'z yasalishi tizimi bilan bog'liq barcha hodisalarining mohiyatini to'g'ri izohlash imkonini beradi. To'g'ri yoritish boshqasini ham hal qilishga yordam beradi, shuning uchun aniq va to'g'ri bayon qilishga va to'liq tahlil qilishga harakat qilish lozim. Yuqorida keltirilgan yasalish uslublari ko'ra koreys tilida ham o'zbek tiliga o'xshash otdagi yasalish metodlari va xususiyatlari o'xshashligiga guvoh beramiz. Koreys tilida ot so'z turkumiga oid barcha xususiyatlar keng qamrovli mavzularni ham o'z ichiga oladi va yana ko'p yasalish jihatlariga ham to'xtalib o'tish mumkin.

Чве. Ми. Ок "Корейс тили грамматикаси" (2006) nazariyasida ham otlarning yasalish jihatlarini, kategoriyalarini keng ko'lamda yoritib bergan. Koreys tili va o'zbek tilidagi ot so'z turkumlarining o'ziga xos xususiyatini yasalish jihatlarini tahlil qilar ekanmiz, qanchalik ikki tilning bir-biriga yaqqol o'xshashligiga guvoh bo'lamiz, desam mubolag'a bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1]. A. Hojiyev. "O'zbek tili so'z yasalish tizimi". Toshkent-2007
- [2]. N. Turniyozov. A. Rahimov. "O'zbek tili ma'ruzalar matni". Samarqand- 2006
- [3]. Q. Sapayev. "Hozirgi o'zbek tili". Toshkent-2009
- [4]. Чве. Ми. Ок " Корейс тили грамматикаси". Самарканд- 2005
- [5]. Баенханова, И. (2019). Паремияларнинг турли тизимдаги тилларда умумий хусусиятлари. Иностранная филология: язык, литература, образование, 2 (71)), 64-66.
- [6]. Эшимова Шарофат 2020. Особенности метафоры тропинимического происхождения. Иностранная филология: язык, литература, образование. 2 (75) (апр. 2020), 81-86.
- [7]. Баёнханова, И. Ф. (2021). Koreys tilida somatik frazeologizmlarning ifoda ma'nosiga ko'ra turlari. Международный журнал искусство слова, 4(2).
- [8]. Фуркатовна, Б.И. (2021). дискурсно-прагматические особенности корейских и узбекских статей о концепте "/человек" 사람. Международный журнал менеджмента, 12 (2).
- [9]. Abdullayev F. O'zbek tili leksikasining ba'zi bir masalalariga doir til va adabiyot instituti asarlari. - Tosh: Fan, 1949.45 b
- [10]. 문금현. 국어의 관용 표현 연구. 서울: 태학사. 1999.7p
- [11]. 노수련. 언어 기구에 대하여: 관용와 어법에 대한 고찰, 1961- pp.29-37

- [12]. 김종택. *이디엄 연구*. 어문학풍권 제 25 호. 서울: 한국어문학회, 1971.-
pp97-112
- [13]. 이영희. *국어의 관용적 표현과 의미의 다의화에 관한 연구*. 1982
- [14]. Qilichev E. *Hozirgi o'zbek adabiy tili*. - B, 1999.69 b